

TURLI MAMLAKATLARDA OLIY TA'LIMNI MOLİYALASHTIRISH YO'LLARI

Umarova Mohigul

moxigul309@gmail.com

Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Annotatsiya: *Oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va turli rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim tizimini, ta'lim tizimini o'rganish va xalqaro tajribalardan foydalangan holda ta'lim tizimiga joriy etishni o'rganadi. Ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor sifat ko'rsatkichlarini yanda oshishiga imkon beradi. Rivojlangan mamlakatlarning o'zini-o'zi moliyalashtirish iqtisod tizimini o'rganish va oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish orqali talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etishni, oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash xususida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, moliyalashtirish, infratuzilma, iqtisod, oliy ta'lim, axborot, moddiy-texnik baza, xorijiy ta'lim.*

Аннотация: *Определить приоритетные направления реформирования системы высшего образования и изучить систему высшего образования разных развитых стран, изучить систему образования и научиться внедрять ее в систему образования, используя международный опыт. Внимание позволяет повысить качественные показатели. самофинансирование экономической системы развитых стран и повышение инвестиционной привлекательности высшего образования за счет привлечения зарубежных образовательных и научных технологий, студентов и молодежи, реализация пяти инициатив, в том числе комплексных мер, направленных на создание дополнительных условий для образования, широкое вовлечение инфраструктуре и материально-технической базе высших учебных заведений, включая льготные средства международных финансовых институтов, дана информация о том, как их улучшить, постепенно перевести на систему самофинансирования и обеспечить их финансовую устойчивость.*

Ключевые слова: *образование, финансирование, инфраструктура, экономика, высшее образование, информационная, материально-техническая база, зарубежное образование.*

Abstract: *Determine the priority directions of the reform of the higher education system and study the higher education system of different developed countries, study the education system and learn to introduce it into the education system using international*

experiences. attention allows to increase the quality indicators. By studying the self-financing economic system of developed countries and increasing the investment attractiveness of higher education, by attracting foreign education and science technologies, students and young people implementation of five initiatives, including complex measures aimed at creating additional conditions for education, extensive involvement of the infrastructure and material and technical base of higher education institutions, including preferential funds from international financial institutions information was given on how to improve them, gradually transfer them to the self-financing system and ensure their financial stability.

Key words: *education, financing, infrastructure, economy, higher education, information, material and technical base, foreign education.*

Yoshlarni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida ta'lim tizimi izchil rivojlantirilmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish Qoraqalpog'istonda mamlakatimizdagi 5 ta nufuzli oliygoh va xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Ta'lim olish inson huquqlarining eng asosiy omilidir va u eng pastki pog'onada majburiy va bepul bo'lishi kerak. Bu tamoyil aksariyat davlatlarda qabul qilingan yoki ushbu tamoyilga rioya qilinadi. Bu esa o'z-o'zidan davlat budjetidagi ta'lim uchun sarflanadigan mablag'larni yuqori bo'lishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiya ariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida: Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish; respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga

yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish; oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish; xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish; oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish; talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish; oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash; ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash kabi qator ustuvor vazifalarni o'z ichiga qamrab olgan. Bilamizki hozirgi kunda Oliy ta'lim tizimiga e'tibor juda yuqori va shu o'rinda har bir rivojlanayotgan sohada Xorijiy mamlakatlarni ta'lim tizimidagi ko'rsatkichlardan foydalanish ham ta'lim tizimini moliyalashtirishda va sifat ko'rsatkichining o'sishida katta ahamiyatga ega.

Rivojlangan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim bo'yicha xususiy sektor cheklangan yoki ayrimlarida umuman yo'q. Evropada faqatgina Belgiya va Gollandiyada xususiy maktablar davlat tomonidan subsidiyalanadi. Bu holat Fransiya va Daniyaga ham ta'lluqli, u erda 10 foizdan 20 foizgacha maktablar davlat tomonidan subsidiyalanadi. Faqat Ispaniya, Buyuk Britaniya va Gretsiyada davlat tomonidan moliyalashtirilmaydigan xususiy maktablar soni ko'p. Xususiy maktablarda o'quvchilarning qamrovi Ispaniyada 13 foiz, Buyuk Britaniyada 6 foiz, Gretsiyada 4 foizni tashkil etadi. Amerikada boshlang'ich ta'lim bo'yicha xususiy maktablardagi o'quvchilar soni 10 foizdan oshmaydi va ularning o'rtacha yillik to'lovi 1700 dollar atrofida. O'rta ta'lim bo'yicha xususiy maktablarga qamrab olingan o'quvchilarning ko'rsatkichi esa 6 foizni tashkil etadi, ammo uning to'lovi ancha yuqori bo'lib, 3650 dollar atrofida. Bu ko'rsatkichlar Kanadada boshlang'ich ta'limda 4 foiz, o'rta ta'limda 6 foiz, Yaponiyada esa boshlang'ich ta'lim bo'yicha xususiy sektor umuman yo'q,

lekin o'рта ta'limda 3 foizdan pastroqni tashkil etadi. (Jean-Claude Eicher., 2019) Ikkinchidan, aksariyat davlatlarda bu xarajatlar ota-onalar tomonidan qoplanadi yoki keyingi yillarda ularning zimmalariga o'tgan. Masalan, Afrikada bu xarajatlar ancha qimmatga tushadi, ya'ni kitoblar, formalar (maktablarda o'quvchilar kiyishi majburiy bo'lgan) kabi to'lovlar uchun. Faqat o'qituvchilarning maoshlari odatda davlat budjeti tomonidan to'lanadi. Uchinchidan, ba'zi bir turdagi xarajatlar ota-onalar yoki ularning oila a'zolari tomonidan to'lanishi majburiy bo'ladi, albatta agarda o'quvchi maktabga qatnayotgan bo'lsa. Masalan, transport xarajatlari o'quvchilar uchun kamdan-kam xollarda bepul. Ta'lim tizimini rivojlantirishning AQSh va G'arbiy Evropa mamlakatlarining tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ularda ta'lim tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida oqilona yo'naltirilgan bo'lib, uning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'siri kuchlidir. Ta'lim tizimini samarali tashkil etilishi iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakatda boshlang'ich va o'рта ta'lim davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. (Chia-HuiLu., 2018) Ta'lim tizimining xalqaro statistik ko'rsatkichlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida mamlakatlarida ta'lim sohasini moliyalashtirishning haqiqiy ko'rinishini beradi. Dunyoning turli mamlakatlarida ta'lim sohasidagi budget mabalag'larini rejalashtirish va taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi manbalari mavjud: – YuNESKO statistika institutining (Global Education Digest) ta'lim bo'yicha yillik hisobotlari; – Iqtisodiy hamjamiyat va rivojlanish tashkilotining (OECD) mamlakatlari tomonidan ta'lim to'g'risidagi yillik hisobotlari (Education at a Glance: OECD Indicators); – Jahon bankining ma'lumotlari. Ta'lim tizimini budget mabalag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibini, shuningdek, ushbu mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda budget mabalag'laridan samarali foydalangan holda ta'lim tizimini moliyalashtirish tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Moliyaviy mexanizmlar haqidagi turli qarashlarga asoslanib, ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmining quyidagi tarkibiy qismlari mavjud: – ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalari; – ta'lim tizimini moliyalashtirish tartibi; – budgetni rejalashtirish va ta'lim tizimining budget mabalag'larini taqsimlash usullari. Ta'lim tizimining moliyalashtirish mexanizmining muhim elementi bo'lib moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN QAROR VA FARMOYISHLAR:

1. Yangi o'zbekiston "TARAQQIYOT STRATEGIYASI" Toshkent 2022 yil 228-bet
2. O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Qonuni
3. "Ta'lim tizimini moliyalashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar" Baxodirov Olimjon Odil o'g'li
4. Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. / 50 Monografiya. "Fan" nashriyoti. 2004 y. 243 b.
5. Malikov T.S., Haydarov N.H. "Davlat budjeti". O'quv qo'llanma. "IQTISOD-MOLIYA" - Toshkent. TMI. 2007 y. 84 b.

6. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. *Интернаука*, (22-3), 64-66.
 7. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Интернаука*, (21-3), 74-75.
 8. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 17, 31-33.
 9. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.
 10. Мамаджонов, Р. (2023). “VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O ‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/5).
 11. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O ‘RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 10-16.
 12. Siddikov, B. S. (2023). MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 39-42.
- MAZMUNI, T. M. A. J. V. Sh. N. Mexmonaliyev–Farg ‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti SS Evatov–Farg ‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi OA Tursunov–Farg ‘ona politexnika instituti akademik litsey o‘quvchisi. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 275.